

**AUTIZM SPEKTRIDAGI BOLALAR BILAN LOGOPEDIK ISH:
EMPATIYA, SABR VA YONDASHUV SAN'ATI**

Bahodirova Marziya Xurshid qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Special pedagogy fakulteti talabasi

bahodirovamarziya923@gmail.com

marziyabahodirova56@gmail.com

Tel: +998887493900

Annotatsiya: Ushbu maqolada autizm spektri buzilishiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning mazmuni, maqsadi va muhim tamoyillari yoritilgan. Asosiy e'tibor autizmli bolalarning nutq va muloqotdagi o'ziga xos ehtiyojlariga qaratiladi hamda logoped ishining faqat nazariy emas, balki insoniy fazilatlar - empatiya, sabr va individual yondashuv bilan boyitilishi zarurligi ta'kidlanadi. Maqolada amaliy misollar, samarali metodlar (vizual vositalar, ijtimoiy hikoyalar, PECS kartalari) keltirilib, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashning ahamiyati ham tahlil qilinadi. Xulosa sifatida, logopedik jarayonda bolaning ichki dunyosini tushunish va unga mos yondashuvni tanlash muhim ekani qayd etiladi.

Kalit so'zlar: Autizm spektri, logopediya, empatiya, sabr, individual yondashuv, nutq rivoji, kommunikativ buzilishlar, logopedik metodlar, PECS, inklyuziv ta'lif.

Аннотация: В данной статье рассматриваются содержание, цель и важные принципы логопедической работы с детьми с расстройствами аутистического спектра. Основное внимание уделяется специфическим потребностям детей с аутизмом в речи и общении, а также подчеркивается, что работа логопеда должна быть обогащена не только теоретическими, но и человеческими качествами – эмпатией, терпением и индивидуальным подходом. В статье приводятся практические примеры, эффективные методики (наглядные пособия, социальные истории, карточки PECS), а также анализируется важность работы с родителями. В заключении отмечается, что в логопедическом процессе важно понимать внутренний мир ребенка и выбирать соответствующий подход к нему.

Ключевые слова: Аутистический спектр, логопед, эмпатия, терпение, индивидуальный подход, развитие речи, коммуникативные нарушения, логопедические методики, PECS, инклузивное образование.

Annotation: This article discusses the content, purpose and important principles of speech therapy work with children with autism spectrum disorders. The main attention is paid to the specific needs of children with autism in speech and communication, and it is emphasized that the work of a speech therapist should be enriched not only with theoretical, but also with human qualities - empathy, patience

and an individual approach. The article provides practical examples, effective methods (visual aids, social stories, PECS cards), and also analyzes the importance of working with parents. In conclusion, it is noted that in the speech therapy process it is important to understand the child's inner world and choose an appropriate approach to it.

Key words: Autism spectrum, speech therapy, empathy, patience, individual approach, speech development, communicative disorders, speech therapy methods, PECS, inclusive education.

Bugungi kunda autizm spektridagi bolalar soni ortib borayotgani logopedlar, psixologlar va o'qituvchilar oldiga yangi mas'uliyatlarni qo'yemoqda. Ushbu bolalar bilan samarali ishslash nafaqat ilmiy bilim, balki yurakdan chiqqan empatiya, cheksiz sabr va har bir bolaga alohida yondashuvni talab etadi. Ayniqsa, nutq va muloqot muammolari autizm spektridagi bolalarda keng uchraydi, bu esa logopedik yondashuvni chuqurroq va noan'anaviy qilishni taqozo etadi. Maqolamda logopedik ishning insoniy jihatlari empatiya, sabr va yondashuv san'ati orqali qanday natijalar olish mumkinligi yoritiladi.

Bugungi globallashuv va inklyuziv ta'lif rivojlanayotgan bir paytda, autizm spektri buzilishiga ega bo'lgan bolalar bilan ishslash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Autizm spektri bu asab tizimining rivojlanishida yuzaga keladigan, shaxslararo muloqot, ijtimoiy moslashuv va xulq-atvorga ta'sir qiluvchi murakkab buzilishdir. Ayniqsa, bu bolalarda nutq va til bilan bog'liq muammolar keng uchraydi, bu esa logoped mutaxassislari uchun o'ziga xos yondashuvni talab qiladi.

Bunday bolalar bilan ishslashda logoped nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, balki empatiya, sabr va har bir bolaga individual yondasha olish qobiliyatiga ham ega bo'lishi zarur. Chunki autizmli bola bilan muloqot o'rnatish, ishonchli aloqa yaratish va uni nutqqa undash oddiy yondashuv bilan emas, chuqur tushuncha va yurakdan chiqqan mehr bilan amalga oshiriladi. Mazkur maqolada autizm spektridagi bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning mazmuni, bu yo'nalishda qo'llaniladigan samarali usullar hamda logoped shaxsiy fazilatlarining ta'siri keng yoritiladi. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlik va ijodiy yondashuvning amaliy natijalarga erishishdagi o'mni ham ko'rib chiqiladi. Autizm spektridagi bolalarda nutq rivojinining o'ziga xos xususiyatlari;

Autizm spektri buzilishi (ASB) bo'lgan bolalarda nutq va til rivojlanishi klassik rivojlanish yo'lidan ancha farq qiladi.

Ba'zilarida umuman og'zaki nutq shakllanmasligi mumkin bo'lsa, boshqalarida nutq mavjud bo'ladi, biroq bu nutq funksional emas ya'ni u kommunikativ maqsadni bajarmaydi. Autizmli bolalarning nutqi ko'pincha echolaliya (eshitgan gaplarni takrorlash), intonatsiyaning yassiligi, nutqning kontekstdan chetlanishi, ixtiyorsiz

gaplar, yoki o'ziga xos so'z birikmalar bilan ajralib turadi. Shuningdek, ushbu bolalar ko'pincha neverbal kommunikatsiya vositalarini (mimika, imo-ishora, ko'z bilan aloqa) yetarli darajada qo'llay olmaydi. Natijada, ularning muloqotga kirishish qobiliyati sezilarli darajada cheklangan bo'ladi. Bu esa logopedik ishni rejallashtirishda an'anaviy yondashuvlardan voz kechishni, har bir bolaning ehtiyojiga moslashgan individual reja asosida ishslashni taqozo etadi.

Autizmli bolalarda nutq buzilishlari ko'pincha quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

Ekspressiv nutqning kechikishi - bola so'zlay olmaydi yoki so'z boyligi juda kam bo'ladi.

Receptiv nutqning buzilishi - ya'ni bola eshitgan so'zlarni tushunmaydi yoki noto'g'ri talqin qiladi.

Stereotipik nutq so'z yoki iboralarning qayta-qayta takrorlanishi.

Simvolik fikrlashning rivojlanmaganligi bu esa o'yinlar, hikoyalari tuzishda qiyinchilik tug'diradi.

Shu bois, logoped mutaxassis avvalambor bolaning jismoniy, psixologik va ijtimoiy holatini chuqur o'rganib, so'ngra unga mos uslublarni tanlashi lozim. Bunda vizual qo'llanmalar, ijtimoiy hikoyalari, grafik belgilari (PECS), musiqa va harakat orqali o'rganish kabi metodlar samarali natija beradi.

Logopedik ishda empatiya va sabrning o'rni;

Autizm spektridagi bolalar bilan logopedik ish o'ziga xos va murakkab jarayon bo'lib, bu jarayonda empatiya va sabr eng asosiy omillar hisoblanadi. Nutq va muloqotda qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalar bilan ishslashda, logopedning o'ziga xos ruhiy tayyorgarligi, har bir bolaning ichki dunyosini tushunishga qaratilgan yondashuvi, juda katta ahamiyatga ega.

Empatiya: bolaning ichki dunyosini tushunish;

Logoped uchun empatiya bu faqat bola bilan muloqotda bo'lishning, uning ehtiyojlarini tushunishning emas, balki, uning hissiy va psixologik holatini his qilish va unga qarab amaliy qadamlar qo'yishdir. Empatiya logopediya jarayonida ikki tomonlama aloqaning asosiy vositasi bo'lib, bola va logoped o'rtasida mustahkam ishonch, hurmat va qo'llab-quvvatlashni yaratadi.

Autizm spektridagi bolalar ko'pincha o'z hissiyotlarini boshqalar bilan ifodalashda yoki boshqa odamlarning hissiyotlarini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shuning uchun logopedning vazifasi faqat nutqni o'rgatish emas, balki bolaning hissiy holatini tushunish, uning ichki dunyosini hurmat qilish va uning ehtiyojlariga mos ravishda yondashuvni tanlashdir.

Misol uchun, ba'zi bolalar muloqotda to'g'ridan-to'g'ri va qisqa so'zlarni afzal ko'rishlari mumkin, boshqalar esa vizual yoki taktil materiallardan foydalangan holda yaxshiroq anglashadi. Logoped bola bilan ishslashda uning alohida ehtiyojlariga hurmat

bilan yondoshishi, uning har bir kichik muvaffaqiyatini qadrlashi zarur.

Bola sabrli yondashuvga javoban o'zini xavfsiz va erkin his qiladi, bu esa uning logopedga bo'lgan ishonchini oshiradi. Ba'zan bolalar autizm spektrining tabiiy belgilari sifatida takrorlanuvchi harakatlar yoki og'ir xulq-atvorni namoyon qilishi mumkin, ammo logopedning sabri, professional yondashuvi va to'g'ri uslublarni tanlashi muhim ahamiyatga ega.

Sabr: qiyinchiliklarga bardosh bera olish;

Autizmli bolalar bilan ishlashda sabr juda muhim fazilatdir. Nutqni rivojlantirish jarayoni, ayniqsa, agar bola ilgari amalga oshirilgan ishlarni tushunmasdan davom etsa yoki ilgari surilgan yondashuvlarni qabul qilmasa, juda uzoq va murakkab bo'lishi mumkin. Shuning uchun logoped bu jarayonda tashqaridan ko'rinxmas bo'lsa-da, bolaning kichik qadamlar bilan rivojlanishini kuzatishi, qo'llab-quvvatlashi va unga o'xhash biror muvaffaqiyatni sezdirishi zarur.

Bola sabrli yondashuvga javoban o'zini xavfsiz va erkin his qiladi, bu esa uning logopedga bo'lgan ishonchini oshiradi. Ba'zan bolalar autizm spektrining tabiiy belgilari sifatida takrorlanuvchi harakatlar yoki og'ir xulq-atvorni namoyon qilishi mumkin, ammo logopedning sabri, professional yondashuvi va to'g'ri uslublarni tanlashi muhim ahamiyatga ega. Sabrlilik, shuningdek, logopedning o'zining ichki resurslarini to'g'ri boshqarishiga va doimiy ravishda o'z ishini optimallashtirishga yordam beradi.

Logopedik yondashuv va metodlarning moslashuvchanligi;

Empatiya va sabrning o'ziga xos yondashuvlar bilan uyg'unlashuvi autizmli bolalar uchun individual yondashuvni ta'minlaydi. Har bir bola o'zining alohida ehtiyojlariga, qobiliyatlariga va rivojlanish bosqichlariga ega. Shuning uchun logoped o'z ishini ularning o'ziga xos xususiyatlariga mos ravishda tuzishi kerak.

Masalan, ba'zi bolalar uchun vizual qo'llanmalar (rasmlar, tasvirlar) yoki ixtisoslashgan kartochkalar (PECS - Picture Exchange Communication System) samarali vosita bo'lishi mumkin. Boshqa bolalar esa sosial hikoyalar yoki audio materiallarni ishlatish orqali yaxshiroq o'rganishadi. Shunday qilib, har bir bolaning o'ziga xos nutq va muloqot usullarini topish, logopedning empatiyasi va sabriga tayanadi. Bolani rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlik;

Logopedning bolalar bilan ishlashdagi muvaffaqiyatiga ota-onalar bilan samarali hamkorlik ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar ko'pincha o'z vaqtida uyda ko'proq vaqt o'tkazadilar, shuning uchun ota-onalar bilan birgalikda ishslash, uy sharoitida nutqni rivojlantirish uchun tavsiyalar berish va mashqlarni davom ettirish muhimdir. Logopedning ota-onalar bilan ishslashda ham empatiyasi, sabri va amaliy maslahatlari muhim o'rin tutadi.

Xulosa:

Autizm spektridagi bolalar bilan logopedik ishda empatiya va sabrning o'rni

cheksizdir. Bu bolaning ehtiyojlarini tushunish, unga mos yondashuvni tanlash, uning ichki dunyosiga hurmat bilan qarashni taqozo etadi. Sabr esa bolaga yordam beradigan eng katta vosita, chunki har bir kichik muvaffaqiyat uning rivojlanishidagi katta qadamni anglatadi.

Ota-onalar va logoped hamkorligi;

Autizm spektri buzilishiga ega bo'lgan bolalarning nutq va kommunikatsiya rivojlanishida logopedning roli beqiyos bo'lsa-da, bu jarayonda ota-onalar ishtiroki hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Logopedik mashg'ulotlar haftasiga bir necha soat davom etsa, bolaning asosiy rivojlanish muhiti bu uy va oiladir. Shu sababli logopedik ish samarali bo'lishi uchun logoped va ota-onalar o'rtasida doimiy, samimiy va ishonchli hamkorlik zarur.

Ota-onalar logopedik jarayonning faol ishtirokchisidir;

Ko'p hollarda logopedik mashg'ulotlar darsdan tashqarida davom ettirilmasa, bola mashqni unutadi yoki ilgari erishilgan natijalar orqaga ketadi. Shu bois logoped ota-onalarni quyidagi jihatlarga jalb qilishi zarur:

Bola bilan uyda mashqlarni muntazam davom ettirish;

Bolaning nutqiga bevosita yoki bilvosita rag'bat berish;

Mashg'ulot uslublarini o'rganib, uyda ham tatbiq qilish;

Bola rivojida yuzaga kelgan kichik yutuqlarni qadrlash va ularni logoped bilan muhokama qilish;

Logoped ota-onaga bola bilan qanday muloqot qilish, qanday savollar berish, qanday o'yinlar o'ynash kerakligini o'rgatishi zarur. Ayniqsa, vizual vositalardan foydalanish, ijobiy baholash, oddiy va aniq gapirish kabi amaliy tavsiyalar ota-onalarga katta yordam beradi.

Ota-onalarning ruhiy holati va ularni qo'llab-quvvatlash;

Autizmli farzandi bor ota-onalar ko'pincha ruhiy jihatdan charchagan, tushkunlikka tushgan yoki o'zini yolg'iz his qiladi. Shuning uchun logoped ota-onalarga nafaqat metodik ko'rsatmalar, balki psixologik dalda ham bera oladigan mutaxassis bo'lishi kerak.

Ota-onalarga autizm haqida ilmiy va amaliy ma'lumotlar berish, rivojlanishdagi yutuqlarni alohida ta'kidlash va bolaning kuchli jihatlarini ko'rsatish ota-onaning farzandiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Bu ishonch esa bevosita bolaning ruhiy va nutqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uy mashg'ulotlarini tashkil qilish: maslahatlar va metodlar;

Logoped ota-onalarga quyidagi oddiy, ammo samarali uy sharoitidagi mashg'ulot usullarini tavsiya qilishi mumkin:

Vizual jadval - bolaga kun tartibini tushunarli ko'rsatish;

So'zlar bilan o'yinlar - kartochkalar, rasmlli lug'atlar orqali ishslash;

Oddiy savol-javoblar daqiqa bolaga sa har kuni 3-5 berish;

O'yinchoqlar bilan rolli o'yinlar;
"o'qituvchi-o'quvchi", "doktor-bemor" kabi rollar orqali so'zlashish ko'nikmasini rivojlantirish;

Harakatli qo'shiqlar musiqa va harakat orqali so'z eslab qolishni osonlashtirish;

Hamkorlikdagi yondashuv natijalari;

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ota-onalar faol ishtirok etgan logopedik jarayon natijadorligi ancha yuqori bo'ladi. Bola o'zini tushunilgan va qo'llab-quvvatlangan muhitda his qiladi. Bundan tashqari, bolaning oiladagi so'zlashuv muhitiga ko'nikishi, u yerda ham logopedik yondashuv davom etayotganini sezishi, uni rivojlantirish jarayonini tezlashtiradi.

Logopedik mashg'ulotlar faqat mutaxassis bilan emas, balki oilada ham davom etganda, bola nutqni tabiiymuhitda qo'llashni o'rganadi, bu esa uning kommunikativ qobiliyatini mustahkamlaydi.

Xulosa:

Ota-onalar va logopedning hamkorligi autizmli bolaning nutqiy rivojida poydevor hisoblanadi. Har bir uydagi logopedik muhit shakllanib, har bir ota-onasi logopedik jarayonning faol ishtirokchisiga aylangandagina bola to'laqonli yutuqlarga erishadi. Bu esa sabr, mehr va iyomon bilan yo'g'rilgan jarayondir.

Autizm spektri buzilishiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish bu nafaqt professional bilim va uslubiy yondashuv, balki yurakdan chiqqan mehr, empatiya va sabr bilan yo'g'rilgan murakkab va mas'uliyatli jarayondir. Bunday bolalar bilan ishslashda logoped faqat nutqni o'rgatuvchi mutaxassis emas, balki bolaning ichki dunyosini tushunuvchi, unga ishonchli muhit yaratuvchi va individual yondashuv orqali imkoniyat eshiklarini ochuvchi inson bo'lishi kerak.

Maqolada yoritilganidek, autizm spektridagi bolalarning nutq rivoji klassik rivojlanishdan keskin farq qiladi, va bu holat logopeddan moslashuvchan, holatga qarab o'zgaruvchan va bolaga mos uslublarni tanlashni talab qiladi. Empatiya logoped bilan bola o'rtasidagi ishonch ko'prigini quradi, sabr esa bu ko'priki mustahkamlaydi. Har bir bola o'z dunyosi bilan keladi va logoped bu dunyoga kirishni xohlagan mehmondek e'tiborli bo'lishi lozim.

Shuningdek, logopedik yondashuvni samarali qilishda ota-onalar bilan hamkorlik muhim o'rinni tutadi. Oila bu bolaning birinchi va eng muhim logopedik muhiti. Uy sharoitida mashqlarni davom ettirish, bolaga ijobjiy ruhda yondashish, nutqqa rag'batlantirish bularning barchasi logopedik ish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ilmiy-amaliy tavsiyalar;

1. Autizmli bolalar bilan ishlovchi har bir logoped individual yondashuvga asoslangan metodikani ishlab chiqishi zarur. Har bir bola alohida holat, alohida ehtiyoj va alohida yechim talab qiladi.

2. Empatiya va sabr - logopedik jarayonning poydevoridir. Bu fazilatlar bolaning logoped bilan muloqotini qulaylashtirib, ishonch va xavfsizlik hissini uyg'otadi.

3. Amaliy mashg'ulotlar vizual, audio va kinestetik usullarni o'z ichiga olishi lozim. PECS, ijtimoiy hikoyalar, piktogrammalar kabi metodlar bolaning muloqotini rivojlantirishda foydalidir.

4. Logoped va ota-onalar o'rtasida doimiy aloqa va maslahatlashuv bo'lishi zarur. Bu bola uchun yagona, uzviy rivojlanish muhitini yaratadi.

5. Logopedlar autizm spektridagi bolalar bilan ishslashda nafaqat kasbiy, balki psixologik tayyorgarlikka ham ega bo'lishi lozim. Buning uchun doimiy o'rganish, seminar va treninglarda ishtirok etish tavsiya etiladi.

6. Ota-onalarga autizm va logopedik yondashuvlar haqida muntazam tushuntirish berib borish kerak. Bu ularning ishonchini oshiradi va faol ishtirokni ta'minlaydi.

Autizmli bolalar bu sinov emas, balki ilhomdir. Ular bizdan nafaqat ko'proq sabr, balki ko'proq yurak so'raydi. ularning ovozini eshitish uchun logoped har doim bilim bilan emas, mehr bilan gapirishi kerak. Har bir bola alohida olam, va logoped uchun bu olamni ochish sharafdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdukadirova, M. (2021). Maxsus pedagogika asoslari. Toshkent: "Ilm Ziyo" nashriyoti.
2. Karimova, M. (2020). Nutq buzilishlari va logopedik tashxis. Toshkent: O'zbekiston pedagogika fanlari markazi.
3. Muminova, Z. & Qodirova, D. (2022). Autizm spektri buzilishida logopedik yondashuvlar. "Maxsus ta'lif" jurnali, №2, 45-52.
4. Xolmatova, G. (2023). Inklyuziv ta'lim tizimida logopedning roli. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy to'plami.
5. Tager-Flusberg, H., Paul, R., & Lord, C. (2005). Language and communication in autism. In F.R. Volkmar (Ed.), Handbook of Autism and Pervasive Developmental Disorders (3rd ed., Vol. 1, pp. 335-364). John Wiley & Sons.
6. Schopler, E., & Mesibov, G. (Eds.). (1995). Learning and cognition in autism. New York: Plenum Press.
7. Bondarenko, N.V. (2019). Logopediya: nazariya va amaliyot. Moskva: Akademiya nashriyoti.
8. Vygotskiy, L.S. (1983). Psixologiya va nutq taraqqiyoti. Moskva: Pedagogika.
9. American Speech-Language-Hearing Association (ASHA). (2020). Treatment of Autism Spectrum Disorder. Retrieved from www.asha.org
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2022). Autizmli bolalar bilan ishslash bo'yicha uslubiy qo'llanma. Toshkent: Metodik markaz.